

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 450 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'lqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloyevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha	
asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini	
jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarcand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va	
innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili	50
Berdiev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкан Ермекбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajodolarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadora Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining	
innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan	
erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va	
monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	
Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133

**Mirziyo Sodikov Odiljon ogli**

Tikuv-trikotaj korxonalarini faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili 138

Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li, magistrant

Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish 144

Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant

Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida 151

Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi

Rоль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны 156

Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант

Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi 161

Xatamov Nurbek Ochiliddiyevich, erkin tadqiqotchi

Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni 169

G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant

Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане 174

Жуманиязова Феруза, PhD, доцент

Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari 179

Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD

Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari 184

Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (PhD)

Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni 190

Nilufar Sharipova, PhD

Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar 197

Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent

Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari 201

O'rboqov Mamurali Odil o'g'li, tayansh doktarant

Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi 208

Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD

Сравнительный анализ методов оценки финансирование инновационных разработок предприятие 212

Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь

IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari 216

Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD

Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения 222

Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi

Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari 227

Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish 231

Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi

Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili 238

Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD

Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана 243

Мирзахалирова Азизахон Алишеровна, докторант

Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish 249

Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni 254

Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; **Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li**, tayanch doktorant

Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики 259

Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, i. o. доцент

Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati 264

Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD

Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari 268

Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)

O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari 272

Gadoyev So'hrob Jumakulovich, PhD, dotsent

Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея 277

Алимова София Розумбаевна, независимый исследователь

Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish 282

Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich, tayanch doktorant

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish 290



N. N. Ismatullayeva , tayanch doktarant	293
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirdorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdagi tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xardilarning roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jaib qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari.....	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochilidiyevich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirdorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiiev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Kashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	
Catalyzing Sustainable Consumer Choices: A Study of Retail Advertising Strategies for Green Development.....	425
Karimova Nafisabonu Djamshidovna , PhD	
Temir yo'l transport tarmog'ining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	433
Fayzullayev Javlonebek Sultonovich , DSc.	
Tashqi mehnat migrasiyasi sohasidagi davlat siyosatining yevropa amaliyoti	439
Askarov Zoxidjon Sadikjanovich , Yuridik fanlar falsafa doktori	
Влияние антикоррупционного просвещения на национальную идентичность государства	445
Мохоров Дмитрий Анатольевич , кандидат юридических наук, доцент	
O'zbekiston respublikasi davlat moliyaviy nazorat organlari faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichlari	449
B.T. Turabov , mustaqil tadqiqotchi, i.f.n.	

MUNDARIJA SODERJANIYE CONTENTS



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MOLIYAVIY NAZORAT ORGANLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINING MUHIM KO'RSATKICHLARI

B.T. Turabov,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi
mustaqil tadqiqotchisi i.f.n.

Annotatsiya: Mazkur maqolada, respublikada kadrlar siyosatini va davlat fuqarolik xizmatlari tizimini tubdan takomillashtirishga oid chora-tadbirlar dasturi, joriy qilinayotgan qonunchiliklarning natijalari, KPI tizimining mohiyati, jahon amaliyotida qo'llaniladigan KPI tiziminining turlari, samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari, uni joriy etishning dolzarbligi, KPI tizimi bo'yicha xorijiy davlatlarda mavjud tajriba, ulardagi salbiy va ijobjiy natijalar tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda KPI tizimini joriy qilish zaruriyati, joriy qilishdan kutilayotgan natijalar, ushuu tizimni joriy qilgan sohalarning tajribasi, muammo va kamchiliklari hamda afzalliklarini yoritishga harakat qilingan.

Hisob palatasining nazorat tadbirlarini tayyorlash va o'tkazishda qatnashish yo'naliishing asosiy bosqichlari, nazorat tadbiri natijalariga ko'ra choralarni amalga oshirish yo'naliishing asosiy bosqichlari, hujjatlarining bajarilishini monitoring va tahlil qilish, samaradorlikning qo'shimcha muhim ko'rsatkichlari hamda KRI tizimini joriy qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasida amalga oshirilgan ishlar yoritilgan. Muallif tomonidan davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimini takomillashtirish bo'yicha samaradorlik tizimini tatbiq etish natijasida ijobjiy natijalarga erishishi ilmiy asoslangan. Kalit so'zlar: Moliyaviy nazorat, Hisob palatasi, ichki audit, davlat budjeti, samaradorlik.

Аннотация: В данной статье рассмотрена программа мер по коренному совершенствованию кадровой политики и системы государственной гражданской службы в республике, результаты введенного законодательства, сущность системы КПЭ, виды системы КПЭ, используемые в мировой практике, Проанализированы важные показатели эффективности, актуальность ее внедрения, существующая система КПЭ в зарубежных странах, опыт их отрицательных и положительных результатов. Также были постарались осветить необходимость внедрения системы КПИ в Узбекистане, ожидаемые от внедрения результаты, опыт, проблемы и недостатки и преимущества отраслей, внедривших данную систему.

Основные этапы направления участия в подготовке и проведении аудиторской деятельности Счетной палаты, основные этапы реализации мероприятий по результатам аудиторского мероприятия, контроль и анализ исполнения документов, дополнительные важные показатели освещены эффективность и работа, проводимая в Счетной палате Республики Узбекистан по внедрению системы КРИ. Научно обосновано, что автор достигает положительных результатов в результате внедрения системы эффективности совершенствования системы государственного финансового контроля и внутреннего аудита.

Ключевые слова: Финансовый контроль, Счетная палата, внутренний аудит, государственный бюджет, эффективность.

Abstract: In this article, the program of measures for the fundamental improvement of the personnel policy and the system of state civil services in the republic, the results of the introduced legislation, the nature of the KPI system, the types of the KPI system used in world practice, important indicators of efficiency, the urgency of its introduction, the existing KPI system in foreign countries experience, their negative and positive results are analyzed. Also, the need to introduce KPI system in Uzbekistan, the results expected from the introduction, the experience, problems and shortcomings and advantages of the sectors that introduced this system were tried to be highlighted.

The main stages of the direction of participation in the preparation and conduct of audit activities of the Accounts Chamber, the main stages of the implementation of measures based on the results of the audit event, monitoring and analysis of the execution of documents, additional important indicators of efficiency and the work carried out in the Accounts Chamber of the Republic of Uzbekistan on the implementation of the KRI system are covered. It is scientifically based that the author achieves positive results as a result of the implementation of the efficiency system for the improvement of the state financial control and internal audit system.

Key words: Financial control, Accounts Chamber, internal audit, state budget, efficiency

ПРОГРЕСС
ТАРАQQIYOT



KIRISH

Yangi O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy ettirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning natijasi ko'p jihatdan davlat moliyasining to'g'ri shakllantirilishi hamda undan samarali foydalanishga bog'liq. Shu sababdan ham respublikada kadrlar siyosatini va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirishga oid birinchi navbatdagi chora-tadbirlar da'sturi belgilab berilgan. Da'sturda davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish s'trategiyasini ishlab chiqish va unda xodimlarni integratsiyalashgan eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida boshqarish va faoliyatini baholashning zamonaviy usullarini tatbiq etish nazarda tutilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunida ham bir qator talablar hamda vazifalar belgilab berilgan:

- Respublikada davlat fuqarolik xizmati faoliyatining samaradorligini baholash tizimini joriy qilish;
- davlat fuqarolik xizmatchisining faoliyati samaradorligini baholash predmeti sifatida ularning asosiy samaradorlik ko'rsatkichiga erishish darajasini belgilash;
- davlat xizmatchisini rag'batlantirish, lavozimga ko'tarish yoki pasaytirish, malaka darajasi berish, mukofotlash va intizomiy jazoni faoliyat samaradorligiga erishilgan natijasi asosida qo'llash;
- davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyati rejasini uning faoliyat samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari asosida shakllantirish;
- malaka imtihonini o'tkazishda xodimning faoliyat samaradorligining asosiy ko'rsatkichlarini inobatga olish nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 yanvardagi Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida ham "Bosh vazir va Hukumat a'zolaridan boshlab ijo hokimiyyati organlarining barcha darajadagi rahbar va xodimlari faoliyatiga natijadorlik mezonlari (KRI) asosida baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiqligi" ta'kidlangan.

Yuqoridagi vazifalar va uni amalga oshirish mexanizmlari, shuningdek, keyingi yillarda mazkur soha faoliyatiga oid qabul qilinayotgan qonunlar, Prezident Farmon va qarorlari, hukumat qarorlaridan ko'rindiki, mamlakatimizda davlat moliyaviy nazorati tizimi faoliyatini takomillashtirish va ularning faoliyat samaradorligini oshirish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA

Maqlada davlat fuqarolik xizmatchisining faoliyati samaradorligini baholashning nazariy va uslubiy asoslari o'rganilgan. O'rganish tahlillar asosida xorijiy davlatlar tajribalari tadqiq qilingan.

Tahlili va natijalar. Samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari (SMK) iqtisodiy mazmunini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur tushunchaning o'zi juda keng va serqirra jarayonlarni qamrab oladi. Tashkilotlar uchun samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari tashkilot oldiga qo'yilgan maqsadlarning amalga oshirilganlik darajasini o'lchanishni, tashkilotni, uning bo'linma va xodimlari faoliyatiga raqamlarda ifodalangan baho berishni, bundan tashqari, tashkilot o'zining holatini baholash va s'trategiyasini amalga oshirish imkonini yaratishini va xodimlarning ishchanlik faolligini oshirishga intilishini ta'minlaydigan vositadir.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarini joriy etilishi samarali va adolatli boshqaruv tizimni shakllantirishga asos bo'lmoqda. Shu sababdan ham, O'zbekiston Respublikasidagi yirik korxonalarda, tijorat banklarida SMK samarali joriy qilish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Ushbu tizimni bosqichma-bosqich davlat organlarida joriy etish maqsadida bir qator institutsiyal normalar ishlab chiqilmoqda.

KPI tizimning joriy etilishi orqali davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatini baholash nazarda tutilgan. Shuningdek, tizimni tatbiq qilishda xorijiy davlatlar tajribalari, ulardagi metodlar, salbiy va ijobjiy natijalar o'rganilishi lozim.

Jahon amaliyotida qo'llaniladigan KPI tizimining bir nechta turlaridan foydalilanildi: erishilgan natijalar



ko'rsatkichlari asosida ko'lga kiritilgan natijalarni sifat va miqdor ko'rinishida baholanadi; sarf-xarajatlar ko'rsatkichlari esa sarflangan resurslar hajmi baholanadi; faoliyat yuritish ko'rsatkichlari orqali ishlab chiqarish jarayonlarining bajarilishi baholanadi; natijadorlik ko'rsatkichlari natijasida qo'lga kiritilgan natijalar va sarflangan vaqt nisbati asosida baholanadi; samaradorlik ko'rsatkichlari asosida qo'lga kiritilgan natijalar va sarflangan resurslar nisbati asosida baholanadi.

Shuningdek, ISO 9001:2008 xalqaro standartlari boshqaruv tizimiga ta'sir qiluvchi bevosita va bilvosita omillarni boshqarishni nazarda tutadi hamda KPI quyidagicha talqin qilingan: natijadorlik – rejalashtirilgan natijalarga erishganlik darajasi yoki tashkilotning natijalarga e'tibor qaratish qobiliyati; samaradorlik - erishilgan natija bilan sarflangan resurslarning o'zaro nisbati yoki tashkilotning ma'lum talablar – vaqt, narx, maqsadga erishish darajasi bilan ifodalanadigan ma'lum bir sifat ko'rsatkichlari orqali o'z maqsadlari va rejalarini amalga oshirish qobiliyati tushuniladi. Ya'ni, samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari – bu faoliyat natijadorligining muhim ko'rsatkichlari deb tushuniladi. Chunki faoliyat natijadorligi o'zida natijaga erishish darajasi hamda erishilgan natijalarga yetishish xarajatlarini ifodalaydi.

Davlat xizmatchilari, xususan Hisob palatasi xodimlari uchun qo'llaniladigan KPI tizimining o'ziga xosligi - aksariyat natijalar tadbirkorlik subyektlari uchun muhim hisoblangan sarf-xarajatlarning qisqarishi, foydaning oshishi kabi moliyaviy ko'rsatkichlar bilan ifodalab bo'lmashigidir. Shuningdek KPI tizimining joriy qilinishi zarurati quyidagilar orqali ifodalanadi:

Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan boshqaruv-nazorat organi Hisob palatasi faoliyati o'ziga xosligi sababdan KPI tizimini joriy qilishdagi muammolar va ularni yechimi bo'yicha takliflar berilgan. Ushbu boshqaruv-nazorat organida KPI tizimi orqali xodimlarining natijadorligini va samaradorligini baholashda katta miqdorda mehnat sarfi talab qilinadigan, lekin natijasi ko'zga tashlanmaydigan yoki o'lchab bo'lmaydigan ko'plab topshiriqlar ijrochilarining mehnati samaradorligini baholashda e'tiborsiz qoldirishi kabi muammolarga duch kelinmoqda. Shuningdek, ish jarayonlarini tashkil etishda faoliyat yuritayotgan xodimlarni to'g'ri rag'batlantirish siyosatini amalga oshirishni tashkil etish sabablaridan ham KPI tizimini joriy qilish zarur hisoblanadi.

Hisob palatasida KPI tizimini joriy qilish orqali xodimlar o'rtasida mehnat taqsimoti nomutanosibligi yuzaga kelishi oldini olish, shu bilan birga, yuqori salohiyatlari kadrlarning ishdan tashqari shaxsiy tashabbuslari va faoliiklarini oshirish, yuqori samara keltirishi mumkin bo'lgan qo'shimcha faoliyatlar bilan ham shug'ullanishlarini rag'batlantirish maqsad sifatida belgilab olingan.

Natijada, xodim faoliyatiga obyektiv baho berish mexanizmi yaratilib, xodimning shaxsiy motivatsiyasi, o'ziga ishonchi, ishiga sadoqati va yondashuvi ortishi, yangiliklarga intilishi yuzaga keladi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda KPI tizimini joriy qilishdan kutilayotgan natijalar quyidagilar:

- xodimlar o'rtasida sog'lom raqobat yuzaga kelishi natijasida ish samaradorligi, natijadorligi ortadi;
- nazorat tadbirlarida ishtiroy etganligidan tashqari xodimlar muammo va kamchiliklarni aniqlashi, bartaraf etish choralarini ko'rishi;
- nazorat tadbirlarining natijadorligi ortadi;
- qonunbuzarliklarni, qo'shimcha daromadlarni, optimallashtiriladigan xarajatlarni hamda obyektda mavjud muammolarni imkon qadar to'liq aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rishga e'tibor qaratiladi.

Ushbu nazorat organi hisoblangan Hisob palatasi uzoq bo'lmagan muddatli faoliyatida samaradorlik ko'rsatkichlarini amaliyotga joriy qilishda juda katta ijobji ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol tariqasida, Hisob palatasi boshqaruv xodimlari faoliyati samaradorligini aniqlash, ya'ni mehnat intizomi, bajarilgan ish hajmi va ijro intizomi hamda tashabbuskorlik ko'rsatkichlarini baholash tartibi belgilanganligini ta'kidlab o'tish mumkin. Shuningdek, xodimlar faoliyati samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari aniq, o'lchanadigan va muayyan natijaga erishishga qaratilgan bo'lishi lozimligini hisobga olgan holda samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarini baholashga quyidagicha yondashildi (1-jadval).

Ushbu yondashuv Hisob palatasi xodimlarining faoliyati samaradorligini baholash tartibini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, xodimlarning faoliyati samaradorligini aniqlash va ma'lumotlarni



yig'ish va tahlil qilish uchun bir nechta elektron-onlayn tizimlaridan foydalaniladi.

Hisob palatasi xodimlari faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlarini baholashda maxsus komissiya tashkil etilib, 66 ta muhim shundan 39 ta asosiy ko'rsatkichlari asosida samaradorlik baholanadi. Bunda, Hisob palatasi sho'balarining vazifalari va funksiyalari hamda amalga oshiradigan ish jarayonlaridan kelib chiqib, samaradorlikning quyidagi muhim ko'rsatkichlari shakllantirilgan:

1. Samaradorlikning asosiy muhim ko'rsatkichlari (nazorat tadbirini amalga oshirish faoliyati bo'yicha) – 39 ta;
2. Samaradorlikning qo'shimcha muhim ko'rsatkichlari (ekspert-tahliliy faoliyati bo'yicha) – 22 ta;
3. Boshqa ko'rsatkichlar va ularga ta'sir etuvchi omillar – 5 ta.

Samaradorlikning asosiy muhim ko'rsatkichlari 39 ta bo'lib, ular qo'yidagilar:

1. Nazorat tadbirlarini tayyorlash va o'tkazishda qatnashish- 21 ta;
2. Nazorat tadbiri natijalariga ko'ra choralarini amalga oshirish -13 ta;
3. Hisob palatasi hujjatlarining bajarilishini monitoring va tahlil qilish – 5 ta.

Shuningdek, xodimlar samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashda quyidagi 4 ta bosqichlar bo'yicha yo'nalishlar belgilab olinadi.

1. Nazorat tadbirlarini tayyorlash va o'tkazishda qatnashish yo'nalishining quyidagi asosiy bosqichlar:
 - hisob palatasi nazorat ishlarning yillik dasturini ishlab chiqishda qatnashish;
 - nazorat tadbirining tashkiliy bosqichida ishtirok etish;
 - nazorat tadbirining da'slabki o'rganish bosqichida va masofaviy o'rganishlarda qatnashish;
 - nazorat tadbiri o'tkazish bosqichida qatnashish;
 - nazorat tadbiri natijalarini shakllantirish bosqichida qatnashish;
 - oliy darajadagi tashriflar davomida imzolash uchun tayyorlanayotgan hujjatlar, investitsiya dasturlariga va hududiy tashrif bayonlariga kiritilishi rejalashtirilgan investitsiya loyihalari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari ijrosini nazoratini amalga oshirish.
2. Nazorat tadbiri natijalariga ko'ra choralarini amalga oshirish yo'nalishining asosiy bosqichlarida:
 - nazorat obyektining e'tirozlarini ko'rib chiqishda ishtirok etish;
 - aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish, kelgusida yo'l qo'yilishining oldini olish hamda nazorat obyektining faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash;
 - vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlarini javobgarlikka tortish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;
 - taqdimnomalar, ko'rsatmalar, xulosalar, tahliliy ma'lumotlar, prezentatsiyalar tayyorlash;
 - nazorat tadbiri materiallarini huquqni muhofaza qilish organlariga kiritish;
 - materiallarni huquqni muhofaza qilish organlarida yoki sudsarda ko'rib chiqish jarayonida ishtirok etish va boshqalar.
3. Hisob palatasi hujjatlarining bajarilishini monitoring va tahlil qilishda:
 - taqdimnoma, xulosa, tahliliy ma'lumot, chora-tadbir va yo'l xaritalaridagi taklif va ko'rsatmalarni amalda qabul qilinganligi;
 - huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan jinoiy yoki ma'muriy ish qo'zg'atilganligi;
 - nazorat obyektining mas'ul xodimlariga nisbatan choralar qo'llanilganligi;
 - nazorat obyektining mas'ul xodimlariga nisbatan choralar qo'llanilganligi;
 - budjet va smeta-shtat intizomini buzgan, Hisob palatasining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilgan yoki qonuniy talablarini bajarmagan shaxslarni ma'muriy javobgarlikka tortish.

1-jadval

Hisob palatasi faoliyatida samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarini baholashdagi yangicha yondashuv



№	Bajariladigan ishlar mazmuni	Misol	Yondashuv
1.	Malaka, tajriba, izlanish talab etmaydigan kunlik bajariladigan ishlar	xizmat safari farmoyishi loyihasini, o'rganish dasturini, xizmat safari guvohnomalarini, vazirliklarga xatlar tayyorlash, yo'l chiptalarini rasmiylashtirish	minimal miqdorda baholash
2.	Joriy vazifa va funksiyalarni bajarish	nazorat tadbirida ishtirot etish	minimal miqdorda baholash
3.	Yuklatilgan vazifalarni bajarish davomida natijadorlikka erishish	nazorat tadbiri davomida xato va kamchiliklar, qo'shimcha daromadlar, optimal-lashtiriladigan xarajatlarni aniqlash	nazorat tadbirida ishtirot etgan ballarga oshiruvchi koeffitsiyent qo'llash
4.	Nazorat tadbiri natijalarini amalga oshirilishi	aniqlangan xato va kamchiliklar bartaraf etilishi, kamomadlar budgetga tiklanishi, berilgan takliflar qabul qilinishi	yuqori miqdorda baholash
5.	Ish faoliyatiga bevosita bog'liq bo'Imagan, lekin o'z ustida ishlab malakasini oshirish orqali ish sifatini va samaradorligini oshirish faoliyati	Ish faoliyatidan tashqari vaqtida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishi va xalqaro sertifikatlar, ilmiy darajalarga ega bo'lishi	yuqori miqdorda baholash

4. Samaradorlikning qo'shimcha muhim ko'rsatkichlarida:

- hisob palatasining yillik hisobotini tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezidenti Administratsiyasi, Oliy Majlisi palatalari, Vazirlar Mahkamasi va Hisob palatasi yig'ilishlariga ma'lumot tayyorlash;

- normativ-huquqiy va idoraviy hujjatlarni ishlab chiqishda qatnashish;
- ommaviy axborot vositalariga tahvilay ma'lumotlar chiqarish;
- jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishslash;
- yuridik va jismoniy shaxslarga amaliy yordamlar ko'rsatish;
- Hisob palatasi raisi va rais o'rinnbosarlarining to'g'ridan to'g'ri topshiriqlarini ijro etish;

Bugungi kunda Hisob palatasi xodimlarining faoliyati samaradorligini (KPI) reytingi avtomatik baholanadi hamda xodimlarining faoliyati har chorak yakunida 17 ta yo'nalishdagi 234 ta indikatorlar asosida KPI reyting tizimida baholanadi.

Ushbu jarayon xodimlarning ish samaradorligini oshirish, ularning o'z ustida ishlashi va tashabbuskorligini oshirishga, ma'naviy va moddiy rag'batlantirishga xizmat qiladi. Jumladan, KPI ko'rsatkichlari muntazam tarzda yuqori bo'lgan xodimlar rag'batlantiriladi va aksincha, ko'rsatkichlari past bo'lganlarning faoliyatiga ta'sir choralarini ko'rildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

KPI tizimining amalda qo'llanishi davlat xodimlarining sifatli va oshkora davlat xizmatlarini ko'rsatishni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu tizimni yanada takomillashtirish uchun Hisob palatasi xodimlarining ish faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini to'laqonli joriy etish uchun qo'yidagi chora-tadbirlarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

- barcha sho'balar hisob palatasining jamlanma ko'rsatkichlarini chuqurroq o'rganib chiqib, boshqa sho'balarning ko'rsatkichlarini o'z sho'bari uchun qo'llash imkoniyatini o'rganish;
- ko'rsatkichlarni amalda qo'llash bo'yicha yo'riqnomalarini ishlab chiqish;
- 2023 yilning o'tgan davrida sho'baning 2-3 ta xodimi tomonidan yilning o'tgan davri mobaynida amalga oshirgan ishlari misolida sinovdan o'tkazish;
- sinov natijalariga ko'ra ko'rsatkichlarni baholashning optimal miqdorlarini aniqlash;



- tizimli ravishda xodimlar faoliyatini baholab borish, Hisob palatasining hisobotlarini shakllantirish imkonini beradigan maxsus axborot dasturining texnik topshiriqlarini ishlab chiqish va ushbu dasturni yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2019 йил 3 октябрдаги ПФ-5843-сонли Фармони.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 8 августда “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги ЎРҚ-788-сонли Қонуни.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги 2020 йил 22 январдаги нутқи.
4. ISO 9000:2008 халқаро стандартлари.
5. Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатасининг 2022 йил 31 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатаси ходимлари фаолиятининг самарадорлигини баҳолаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги К-29-сонли бўйруғи.
6. Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатасининг 2023 йил 1 январдаги К-3-сонли бўйруғи.
7. Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатасининг 2023 йил 28 апрелдаги К-23-сонли бўйруғи.

Yashi | IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

